



Shaxnoza Raximova

Urganch davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: mirzohidmamajonov26@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15814404>

MA'NAVIY MADANIYATNING RAMZIY BELGILARI

Annotations. Ushbu maqolada “ramz” tushunchasi, uning diniy va marosimiy tahlili, turli diniy e’tiqodlarda ramzlarga bo‘lgan munosabat, ularning ma’no va vazifalari aks etgan. Maqolada muallif Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarining oyna ramzi bilan bog‘liq qarashlarini dunyo xalqlarida mavjud bo‘lgan tasavvurlarga bog‘langan holda yoritib bergen. Unda asosiy e’tibor nikoh to‘yi marosimlari va qadimiylar diniy e’tiqodlardagi oyna ramzining etnografik talqiniga qaratgan.

Kalit so‘zlar: O‘rta Osiyo, Farg‘ona vodiysi, o‘zbeklar, marosim, oyna kulti, nikoh marosimi, “oyna ko‘rsatar”, shomonlik, afsungarlik, baxshi, atribut, so‘fiylik, islom.

Kirish. Ma’lumki, ramz va u bilan bog‘liq an’anlar dunyo xalqlari misolida yaxshi o‘rganilgan. Odatda, ramzlar bilan bog‘liq qarashlar o‘ziga xos tarixga ega bo‘lib, ular ibtidoiy odamlarning tabiatni kuzatish, xo‘jalik mashg‘ulotlari va diniy tasavvurlarining rivojlanib borishi natijasida shakllangan. Asta-sekinlik bilan ramzlar insonlar ma’naviy va madaniy hayotining ajralmas qismiga aylana borgan.

Marosim – inson hayotining moddiy va ma’naviy turmushining talab va ehtiyoji bilan yuzaga keladigan hodisadir. Har qanday marosim u yoki bu xalqning ma’lum bir tarixiy taraqqiyoti bosqichidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko‘rsatuvchi asosiy belgilarni o‘zida mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi [1, 152]. Boshqacha qilib aytganda, *marosim umum tomonidan qabul qilingan ramziy harakatlarga ega bo‘lgan hayotiy tadbirdir*. Marosimlarni xalq madaniyatining fenomeni tarzida o‘rganish dolzarb muammolardan biridir.

Asosiy qisim. Dunyodagi barcha etnoslar singari o‘zbek xalqi ham o‘ziga xos bo‘lgan marosimlar tizimiga ega. Ushbu marosimlarning aksariyat qismi ma’lum bir dinga va diniy e’tiqodga tegishli hisoblanadi. Barcha diniy tasavvurlarda bo‘lgani kabi shomonlikda o‘ziga xos marosimlar tizimi mavjud bo‘lib, ularning hyech biri marosimiy vositalarsiz o‘tmaydi. Shomonlar o‘zlarining ruhiy kuchlariga nisbatan ishonch-e’tiqodni yanada oshirish, maqsadga tezroq va qulayroq tarzda yetishish yoxud muayyan ta’sirni uzoqroq muddatda saqlab turish niyatida xilma-xil tashqi yordamchi vositalardan foydalanadilar. Ana shunday yordamchi vositalardan biri ko‘zgudir.

Ko‘zgu haqida dunyo xalqlarining tasavvurlari xilma-xildir. Masalan, qadimgi Xitoyda singan ko‘zgu baxtsizlik keltiradi, deb tasavvur qilingan bo‘lsa, o‘rta asrlarda Yevropada aza bo‘lgan xonadonda oynalar ustini yopib qo‘yish kerak bo‘lgan [2, 146]. Ko‘zgudan ko‘pincha jodugarlikda (xususan, ruhlar bilan muloqot uchun) foydaliladi va unga berilgan xususiyatlarga ko‘ra, fol ochish uchun qo‘llanadigan billur sharga o‘xshaydi.

Xalq og‘zaki ijodida ko‘zgu jodu bilan qiyoslanadi. Yevropaning shimoliy qismida yashagan vikinglarda oyna narigi dunyo eshigi sifatida e’tirof etilgan bo‘lsa, hindlarda esa haqiqat ramzi hisoblanib, narigi dunyoning timsoli vazifasini bajargan [3, 147]. Ko‘zguga oid qarashlar islom dinida ham mavjud bo‘lib, so‘fiylikda dunyo va Alloh bir-birini aks ettiruvchi ko‘zguga qiyoslangan.

Ko‘zguning afsungarlik xususiyati Osiyo va Yevropa xalqlarida ham qadimdan ma’lum bo‘lgan. Oynaning marosimi ahamiyati xususida qadimiy xitoy manbalarida ham ma’lumotlar keltirilgan. Arablarda temirli oynaga baxtsizlikka qarshi turuvchi kuch sifatida qaralgan [4, 101].

Farg‘ona vodiysi shomon-baxshilarining marosim atributlari jumlasiga childirma, qamchi, tasbeh, yigiruv charxi, uyali aloqa vositasi, kul, suv, pichoq, oyna, turli xil iplar, inson sochi, tol novdasi kabilar kiradi. Nomlari qayd etilgan anjomlar vositasida vodiy shomon-baxshilari bemorlarni davolash ishlarini olib boradilar.

O‘zbek va tojik baxshilari odamlarni qabul qilish va ularni davolash jarayonida oynadan ham foydalanganlar. Oyna qadimiy marosimiy buyum bo‘lib, dunyoning ko‘pgina xalqlarida muqaddas buyum sifatida qadrlanib kelingan [5, 501].

O‘zbek xalqining nikoh to‘ylarida kelin-kuyovga oyna ko‘rsatilishi ularning umr yo‘llari ko‘zguday musaffo bo‘lsin degan istakni anglatadi. Axborotchilarning e’tirof etishicha, kelin-kuyov bir-biriga oynada egri qaramasliklari kerak, aks holda tug‘ilajak farzandlarining ko‘zi qiyshiq bo‘lish ehtimoli mavjud [6. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumani Ko‘chaboshi qishlog‘i. 2024-yil]. Shundan so‘ng kelin-kuyov birgalikda yangalar tomonidan berilgan ko‘zguga (oynaga) qaraganlar va u “oyna ko‘rish” udumi deb ataladi. O‘z navbatida, shunga o‘xhash udumni tojiklar, Eronliklar, veda dinidagi hindlarning to‘y marosimlarida ham uchratish mumkin [7. 43].

Chimildiqda kelin-kuyovni yangi, tutilmagan oynaga qaratish marosimi nomi. Ushbu marosimda yoshi katta ayollardan biri kelin-kuyovni yonma-yon qo‘yib oynaga qaratadi va oynada ularning aksi ko‘rinadi. Shunda kelin-kuyov bir-biriga “Oynaga qarab oyni ko‘rdim, Ko‘zimni ochib sizni ko‘rdim” deydi. *Ko‘z ochib ko‘rganim* deyish shu odatdan kelib chiqqan. Folklorshunoslarning yozishicha, Buxoro viloyatida “oyna ko‘rsatar” marosimi qizning uyida o‘tkaziladi. Odatda, marosimga maxsus ijrochi chaqiriladi va u “salomnomasi” aytadi, undan keyin kelin yangalar kelin bilan kuyovga oyna ko‘rsatadilar. Oyna ko‘rsatayotgan ayol “Kim

chiroyli?” deydi. Shunda kuyov tomon “Kuyov chiroyli”, kelin taraf “Kelin chiroyli”, deydi. Bu savol-javob bir necha marta takrorlangach, oxiri ikkala taraf ayollari birgalashib “Kelin-kuyov chiroyli” deb javob qiladi [8. 133].

Nikoh kechasi yoshlarning birgalikda oynaga qarash udumida kelin-kuyov kelajak hayotlari oyna misoli tiniq, yorug‘ va pok bo‘lishi niyati mavjud. Biz bunda ko‘zguning ramziy xususiyatlari bilan birga afsungarlik unsurlarini ham ko‘rishimiz mumkin. Kelin-kuyovning birgalikda oynaga qarash udumi qadimgi ibtidoiy odamlarning odamlar ruhi ularning soyasida, suv va oynada namoyon bo‘ladi degan qarashlaridan kelib chiqqan. Jumladan, J. Frezer ham qadimda jon soya, suv va ko‘zgudagi aks tasvirda ham bo‘lishi mumkinligi haqidagi tasavvurlarni e’tirof etgan [9. 142].

“Oyna ko‘rsatuv”dan keyin yangalardan biri kelin-kuyovning qo‘llarini bir-birlariga ushlatib qo‘yadi va ular ma’lum vaqtgacha qo‘l ushlashgan holda turganlar, ushbu udum ramziy ravishda kelin-kuyov tanishuvini bildirgan. So‘ngra yanga yangi oila vakillari boshidan yovuz ruhlardan tozalash maqsadida qora chiroqni uch marta aylantirgan va kelinga yangi ko‘ylak kiygizib uning oldiga yosh bolani o‘tqizib qo‘yan. Ushbu odat zamirida yoshlarning serfarzand bo‘lishiga qaratilgan afsungarlik harakati mavjud. Shundan so‘ng yanga dastlab kelinga, so‘ngra kuyovga qand bergen. Bunday rusum asosida kelin-kuyovning kelgusi hayotlari qand kabi shirin bo‘lsin degan ma’no yotadi. Kelin-kuyov qandni yeb bo‘lgach, piyolada nikoh suvidan olib kelingan. Ular olib kelingan suvdan bir qultumdan ichganlar. Odatga ko‘ra, bunday suv hyech qachon yerga to‘kilmaydi, chunki uni yerga to‘kish baxtsizlik keltiradi deb hisoblanadi [10. 144].

Katta suvlarga kechasi yolg‘iz borish, tunda oynaga qarash taqiqi, butun jahondagi singari o‘zbek xalqida ham mavjud. Qolaversa, xalq orasida ko‘rilgan tush qanday bo‘lishidan qat’iy nazar uni suvga aytish odati ham bo‘lgan. Ana shu dalillarga ko‘ra, oynaga qarash muhim afsungarlik ahamiyatiga ega bo‘lgan.

O‘zbek va tojik baxshilari shomon marosimlari jarayonida oynadan keng ko‘lamda foydalanganlar. Oyna qadimiylar marosimiy predmet bo‘lib, dunyoning ko‘pgina xalqlarida muqaddas buyum sifatida *qadrlanib* kelingan [11. 73–74]. V. Litvinskiyning fikriga qaraganda, skif, qadimgi xitoy, rus va nemis shomonlari oynaga qarab fol ochgan bo‘lsalar [12, 101], V. Dyakonova esa Tuva shomonlarida oynaning osmonidan tushganligini haqidagi fikr mavjudligini qayd etgan. Shomonlar ana shu oynani ruhlar tomonidan ularga ko‘rsatilgan marhamat deb bilganlar [13. 148].

Farg‘ona vodisida olib borilgan dala-etnografik tadqiqotlar mobaynida ushbu hudud baxshi va folbinlarining muolaja va shomonlik marosimlarida oynadan foydalanish holatlari kam kuzatildi. Faqatgina Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani Soyshildir qishlog‘ida yashovchi O‘ktamxon baxshi o‘z qabuliga kelgan odamlarning kelajagini oldindan bashorat qilish jarayonida oynadan foydalanadi [14. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani Soyshildir qishlog‘i. 2024-yil].

O‘zbeklarda oyna ramzi bilan bog‘liq qarashlar yangi uyga ko‘chishda ham saqlanib qolgan bo‘lib, “yangi uyga ko‘chib kirish jarayonida uchta jihatga qat’iy amal qilingan. Birinchisi - ostonadan *tuz* olib kirilgan, bu bilan xonodon tuz-nasibali bo‘lishi niyat qilingan. Ikkinchisi - ostonadan *non* va *un* olib kirilgan. Bu bilan yangi xonodon ahlining rizq-nasibali, toleyi baland, hayoti to‘kin-sochin va farovon bo‘lishi niyat qilingan. Uchinchidan, yangi uy ostonasidan ichkariga *ko‘zgu-oyna* olib kirilgan. Bu bilan ushbu ro‘zg‘or ahlining hayoti va turmushi oynaday ravshan, beg‘ubor, nurafshon hamda musaffo bo‘lishi xudodan so‘ralgan” [15. 123].

Xulosa. Umuman olganda, ramzlar inson hayotida katta ahamiyatga ega. Shuning uchun asrlar davomida olimlar tomonidan ramzlar haqida ko‘p ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va bunday izlanishlar hozir ham davom etmoqda. Ramzlar asrlar davomida shakllanib, tarixan xalqning qadimiylar mif, turli e’tiqodiy dunyo qarashlariga bog‘lanadi. Barcha turdagilarni ramzlarning tub ildizi xalqning u yoki bu mifologik tasavvur, e’tiqodiy qarashlarga bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Саримсоқов Б. Маросим фольклори. Тошкент: Фан, 1986. – Б. 152.
2. Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими. Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. Б. 146.
3. Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими. Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. Б. 147.
4. Литвинский В. А. Зеркало в верованиях древних ферганцев // Советская этнография. 1964. №3. С. 101.
5. Харузин В. Этнография. М., 1908. Вып. 1. С. 501.
6. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumani Ko‘chaboshi qishlog‘i. 2024- yil.
7. Лобачева Н. П. Свадебный обряд хорезмских узбеков // Краткие содержания Институт Этнографии. М.: Наука, 1960. С. 43.
8. Жўраев М., Худойқулова Л. Маросимнома. Ўзбек халқининг урф-одат ва маросимлари ҳақида қисқача маълумотнома. Тошкент: ЎзМЭ, 2008. Б. 133.
9. Фрэзер Дж. Золотая ветвь. М.: Наука, 1986. – С. 142.
10. Аширов А. А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. Б. 144.
11. Стратонович Г. Г. Китайские бронзовые зеркало; их типы, орнаментация и использование. “Восточноазиатский этнографический сборник” // ТИЭ. – М.: Наука, 1961. Т. LXXIII. – С. 73–74.
12. Литвинский В. А. Зеркало в верованиях древних ферганцев // Советская этнография. 1964. – №3. – С. 101.
13. Дяконова В. П. Тувинские шамани и их социальная роль в обществе // ПИОСАС. Л.: Наука, 1981. С. 148.

14. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani Soyshildir qishlog‘i.
2024- yil.

15. Маҳмуд Саттор. Ўзбек удумлари. Тошкент, 1993. – Б. 123.

СИМВОЛИЧЕСКИЕ ЗНАКИ ДУХОВНОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. В данной статье отражено понятие «символ», его религиозный и ритуальный анализ, отношение к символам в различных религиозных верованиях, их значение и функции. В статье автор освещает взгляды узбеков Ферганской долины на символ зеркала, в связи с представлениями, существующими у народов мира. Основное внимание удалено этнографической интерпретации символа зеркала в свадебных обрядах и древних религиозных верованиях.

Ключевые слова: Средняя Азия, Ферганская долина, узбеки, ритуал, культ зеркала, брачный обряд, «зеркальщик», шаманизм, колдовство, бахши, атрибут, суфизм, ислам.

SYMBOLIC SIGNS OF SPIRITUAL CULTURE

Annotation. This article reflects the concept of "symbol", its religious and ritual analysis, the attitude towards symbols in various religious beliefs, their meaning and functions. In the article, the author sheds light on the views of the Uzbeks of the Fergana Valley on the mirror symbol, in connection with the ideas existing among the peoples of the world. The main attention is paid to the ethnographic interpretation of the mirror symbol in wedding ceremonies and ancient religious beliefs.

Keywords: Central Asia, Fergana Valley, Uzbeks, ritual, mirror cult, marriage ceremony, “mirror showman”, shamanism, witchcraft, Bakhshi, attribute, Sufism, Islam.